



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



### ZAMONAVIY O'ZBEK ADABIYOTIDA SADOQAT VA XIYONAT

**N.S.Qosimova**

*Jizzax davlat pedagogika universiteti O'qituvchisi  
qosimovan561@gmail.com*

**ANNOTATSIYA:** *Adabiyotining bosh mavzulardan biri sifatida qaraladigan Sadoqat va xiyonat mavzusi va ularning talqini, ijtimoiy-psixologik asoslari ilmiy-badiiy tahlilda berilishi bilan bog'liq jahon adabiyotida zuhurlangan axloqiy-estetik tajribalar o'zbek adabiyotida ham ancha keng iste'foda etiladi. Bugun milliy adabiyotimiz mavzular ko'lami jihatidan ham rangbaranglashib bormoqda. Ijtimoiy tafakkur eskicha qarash va yondashuvlardan xalos bo'lib borayotgan bir davrda ilm-fanning barcha sohalari qatori adabiyotshunoslikning ham muhim nazariy masalalarini har tomonlama teran tadqiq etish borasida keng imkoniyatlar ochilmoqda. Adabiyotshunoslik va uning tadrijida ijodkor badiiy mahorati masalasi bugungi davrda muhim ahamiyat kasb etmoqda.*

**KALIT SO'ZLAR:** *adabiyot, mahorat, xiyonat, tafakkur, milliy, badiiy estetik*

Romanda xalqqa, xalq kuch-qudratiga, donoligiga, uzoqni ko'ra olishiga ishonmay, og'ir ishlarni boshlashga o'zida jur'at topolmagan, qo'rquqlik qilgan va shu sababli boshiga yolg'izlik fojiasi tushgan rais Qodirovning ayanchli ahvoli o'quvchini bee'tibor qoldirmaydi. Shu ma'no jihatdan mahoratli adib va tarjimon Asqad Muxtorning "Chinor" ezgulik, odamoxunlik, masalasi bir jihat bo'lsa, ikkinchidan davrga xos bo'lgan xiyonat turlanib, tuslanishi yaqqol ifodalanadi. Yana shuni ta'kidlash joizki, O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik" romanida ham turli tuman taqdirlar ifodasiga ro'baro' kelasiz. Undagi ishonchsizlik va qo'rquv, xudbinlik va takabburlik tuyg'ulari yolg'izlanib qolishining tub ildizlari sifatida ko'rsatib beriladi. Ayniqsa, ishdan bo'shatilib, uyida yolg'iz qolgan rais Qodirov o'zini-o'zi ichki taftishdan o'tkazadi. Uning bu holati romanda monologlar shaklida ta'sirchan bayon etilgan. Jumladan, rais monologlari orqali qaerda xatolikka yo'l qo'yganini eslashga tirishadi. U chuqur o'y-xayollarga berilar ekan, o'tmishini, atrofidagi odamlarning fe'l-atvoriyu xatti-harakatlarini bir-bir eslaydi. Shunday monologlarning birida adib Qodirov tilidan yozadi: "na endi uzoq davr ichida qilingan gunohlar uchun javob berish vaqti keldi. Hozirgacha sen bu payt to'g'risida o'ylab ko'rmagan eding, Qodirov! Umumxalq mehnati va g'alabasini o'zingga o'zlashtirib, shaxsan o'zingniki qilib ko'rsatarding. Bu ishing tasodifiy emas, albatta. Sen o'zingni sevib, o'zingga bino qo'yarding. Bilganing bilgan, qilganing qilgan edi, faqat-faqat o'zingga ishonarding... Shundan buyon ham qancha-qancha suvlar oqib o'tdi, turmush ham bir joyda turmay, yuksalish qonunlari yo'lidan qancha-qancha ilgarilab ketdi. Odamlar ham o'zgarib ketdilar, turmushdan orqada qolmaslik uchun muttasil o'qib-o'rgandilar. Hamisha olg'a intilib, tanib bo'lmaslik darajada o'sib-ulg'aydilar. Sen bo'lsang, ko'z oldingda bo'layotgan o'sish, o'zgarishni ko'rolmay, "ishga tajriba ko'zi bilan qarash kerak",



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



“mening tajribam, mening xizmatim” deya javrading. Sen bir to‘tiqush bo‘ldingu allaqachon yodlab olingan eski so‘zlarni takror qilishdan nariga o‘tmading. Oqibatda, sen turmushdan orqada qolganingni, tajribalaring eskirib ketganligini bilmay qolding. Shu vaqt ichida qattiq talabchanliging – ChURUK hukmronlikka, jasorating – qo‘rqoqlikka, ishonching – shuhratparastlikka, kamtarliging – o‘zingga bino qo‘yishlikka aylanib ketdi. Mana shularning birortasini ham sezmay qolding, aytsalar tan olmading”, – deb yozadi.

Qodirov o‘ziga munosib sirdosh, hamtovoq va do‘st topa olmagan sababli yolg‘izlikka yo‘liqadi. Uning panohiga to‘plangan “erkatoylar” mana bunday yolg‘izlik holatida sira yo‘qlamaydi. Aksincha, undan osongina voz kechadilar. Birdan-bir tayanchi, ishongani Aliqul bo‘lsa, aybini fosh qilib, mazax qilishga tushadi. G‘afur, Ro‘zi polvon, mulla Sulaymon kabi tekinxo‘r, o‘g‘ri, ishyoqmas, savdogar – kolxoz taniga yopishgan zulukdek kimsalar Qodirov panohida jon saqlab semirganlar edi. Bularning hammasi u raisligida xushomadgo‘ylik qilib, maqtagan sari, taltayib, “Oltinsoyni Oltinsoy qilgan o‘zim, xalq elkasiga ko‘taradi”, deya jar solgandi. Hamisha qo‘ynini puch yong‘oq bilan to‘lg‘azgan, shirin va yolg‘on so‘zlari bilan mast qilganlar bu kimsalar u rais bo‘lib mansab otining egarida taltaygan paytlarida oyog‘ini yalashga tayyor turgan bo‘lsalar, endilikda undan nafratlanar edilar. Ayni paytda Qodirov ham ularni eslab nafratlanar, beixtiyor “Bo‘rilar va tulkilar” deb so‘kinib qo‘yardi.

Har holda Qodirov o‘shalarsiz ham turolmas edi. Bunga u ochiq iqror bo‘ladi. Chunki ular tilyog‘lamalik qilib, maqtovini joyiga qo‘yishlaridan mag‘rurlanardi, zavq tuyardi. Xususan, har fazilatini ko‘klarga ko‘tarib, yo‘q fazilatlarini o‘zlari qo‘shib maqtovga kirishganlarida yog‘day erib turaverardi. Eng yomoni, atrofni o‘rab olgan va maqtovini to‘tiqushdek yodlab olgan bu kimsalardan biror marta bo‘lsa ham shubha qilmasdi. Sababi, Qodirov bu odamlarni biror marta ish jarayonida emas, faqat ziyofatlardagina uchratgan edi. Qodirov shaxs sifatida mehnatkash bilan ishyoqmasni, o‘g‘ri bilan to‘g‘rini, do‘st bilan dushmani ajrata olmaganidan o‘kinadi. Shu jihatdan farosatsizlik qilgani, odam tanimasligi alam qiladi.

Bugun milliy adabiyotimiz mavzular ko‘lami jihatidan ham rangbaranglashib bormoqda. Ijtimoiy tafakkur eskicha qarash va yondashuvlardan xalos bo‘lib borayotgan bir davrda ilm-fanning barcha sohalari qatori adabiyotshunoslikning ham muhim nazariy masalalarini har tomonlama teran tadqiq etish borasida keng imkoniyatlar ochilmoqda. Adabiyotshunoslik va uning tadrijida ijodkor badiiy mahorati masalasi bugungi davrda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki busiz milliy badiiy-estetik tafakkurni boyitib, yangilab, rivojlantirib bo‘lmaydi. Bunda, ayniqsa, hayotni badiiy yorqin tasvirlash, betakror obrazlar yaratish, milliy adabiyotimiz xazinasini yangi poetik kashfiyotlar bilan boyitishga muvaffaq bo‘lgan yozuvchilar ijodini tadqiq etish beqiyos o‘rin tutadi. Shu ma’noda XX asr o‘zbek nasrining ko‘zga ko‘ringan ijodkorlaridan bo‘lgan O‘tkir Hoshimov asarlarini o‘rganish, yozuvchining o‘ziga xos uslubi va badiiy mahoratini tadqiq etish muhimdir.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudov N., Xudoyberganova D. O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati. – T.: Ma'naviyat, 2013. – 320 b.
2. Maxmudov N. Til va madaniyat. – T.: O'zbekiston, 1992. – 110 b.
3. Safarov Sh. S. Kognitiv tilshunoslik. – J.: Sangzor, 2006. – 14 b.
4. Safarov Sh.S. Semantika. –T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2013. – 15 b.
5. Safarov Sh.S. Til nazariyasi va lingvometodologiya. Monografiya. – T.: Bayoz, 2015. – 376 b.
6. Тайлор Э.Б. Первобытная культура. – М.: Политической литературы, 1989. – С. 30.
7. Шаклеин В. М. Лингвокультурология. Традиции и инновации. – М.: Флинта, 2012. – 301 с.
8. Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo'ng'urov R., Rustamov H. O'zbek tili stilistikasi – T.: O'qituvchi, 1983. – 13 b.
9. Хроленко А. Т. Теория языка: учеб. пособие / А. Т. Хроленко, В. Д. Бондалетов. – М., 2006. – С. 432-433.
10. Хроленко А. Т. Основы лингвокультурологии. Учебное пособие. – М.: Наука, 2009. – 182 с.

